

2022 -2026 -Yillarga Mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasining Amalga Oshirilish Holati: Yutuqlar Va Vazifalar

Muzaffarxonov Saida‘loxon Akmalxon o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti iqtisodiyot fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Maskur maqolada mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyevning odil iqtisodiy qarashlari hamda uzoqni ko‘ra bilishlari natijasida ishlab chiqilgan hamda vatanimizning porloq kelajagini o‘z qo‘limiz bilan yaratishda qaysi rejalarga asoslanib porloq kelajak tomon yurishimiz qayd etilgan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” oldidagi vazifalar, yutuqlar hamda rivojlanishlar keltirib o‘tilgan. Taraqqiyot strategiyasi mamlakatimizning istiqbolini ko‘zlovchi rejalar jam bo‘lgan va eng asosiysi umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan hujjatdir.

Kalit so‘zlar: Inson qadri, fuqorolik jamiyati, taraqqiyot strategiyasi, modernizatsiya, milliy iqtisodiyot, iqtisodiy o‘shish, transformatsion o‘zgarishlar.

Bugun xalqimiz hayotida ulkan o‘zgarishlar yuz bermoqda. Jumladan, Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning tashabbusi bilan keng jamoatchilik muhokamasi natijasida “Harakatlar strategiyasidan-Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan, yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat **“2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”** davlat dasturining qabul qilinishi mamlakatimizda tub demokratik islohatlar transformatsion o‘zgarishlar yangi davirni boshlab berdi. Strategiya asosida amalga oshirilgan islohatlar barcha sohalarni qamrab oladi. Taraqqiyot strategiyasida erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, inson qadri-qimmati va uning qonuniy manfaatlarini ta‘minlash, adolat va qonun ustuvorligini ta‘minlash hamda xalqparvar davlat barpo etish, inson qadrini yuksaltirish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish, ma‘naviy va ma‘rifiy sohalarda islohotlarni amalga oshirish kabi muhim vazifalar belgilangan. Bundan tashqari, global muammolarning milliy va mintaqaviy darajadagi yechimlarini topish, tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi masalalarga atroflicha to‘xtalib o‘tilgan. Barchamiz bilamizki san‘at va madaniyat sharq mamlakatlarida ilk bor shakillana boshlagan. Qadimdan turkiy davlatlarda san‘at va madaniyat ilimining chuqur o‘rganilgani hamda unga oshiqmandaligini qadimgi sharq adabiyotlarida ham yaqqol isbotini topgan. Hususan mamlakatimiz prezidenti tomonidan ushbu sohani yanada rivojlantirish, turkiy davlatlar hazinasini butun dunyoga tanitish hamda eng asosiysi sharqona madaniyatning ochilmagan qirralarini ochish kabi bir qancha rejalar va masalalar **“Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”**da ham belgilab qo‘yilgan. Strategiyaning to‘rtinchi yo‘nalishi bo‘lmish **“Ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlashda sohani yangi bosqichga olib chiqish”**ning yangi istiqbolli masalalari umummadaniy masala sifatida o‘rtaga tashlandi. Ushbu konsepsiya **“Yangi O‘zbekiston-ma‘rifatli jamiyat”** shiori ostida amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Bugungi kunda nafaqat ijtimoiy-siyosiy sohada balki butun jahon hamjamiyatining diqqati markazida bo‘layotgan hamda madaniyat o‘chog‘i bo‘lmish O‘zbekistonning qadimgi buyuk allomayu sarkarda bobolarimizdan meros bo‘lib kelayotgan qadriyatlarimizning jahon hamjamiyati e‘tiboriga tushgani bizga yanada madaniy va san‘at sohalarni rivojlantirishga keng imkoniyat eshiklarini ochib bermoqda. Hususan 25-oktabr kuni Madaniyat va san‘atni rivojlantirish

jamg'arasi Germaniyaning Berlin davlat muzeylari tashkiloti bilan 2023-yil Berlin shahrida "O'zbekiston Makedoniyalik iskandardan to Kushonlar saltanatigacha" shiori ostida ko'rgazma tashkil etildi. Ko'rgazma Jeyms Simon galereyasida 2023-yilning 21-apreldan 1-oktabriga qadar o'tkazilib, unda O'zbekistonning turli muzeylaridan 270 dona arxeologik osori atiqalardan bo'ladi. Galereya Berlin davlat muzeylari uyushmasi tarkibiga kiradi. Axr bekorga aytilmaydi ma'naviy barkamol insonlar vatanparvar insonlar hisoblanishadi. Vatanparvar insonlar esa vatan ravnaqi yo'lida har qanday to'siqlarni yengib o'tishga tayyor bo'lishadi. San'at va madaniyatini qadrlagan yurt doimo yuksaklik sari ilg'or qadamlar tashlaydi. Chunki vatanga bo'lgan muhabbat, iftihar va eng asosiysi umuminsoniylik tuyg'ulari sharqona san'at va madaniyatimizning tub negizida yashiringan. Nafaqat madaniy sohada balki iqtisodiy sohaga ham mamlakatimiz prezidenti tomonidan kata e'tibor qaratilmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida qayd etilgan yetti yo'nalishning uchinchi tarmoqi **"Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash"**dir. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish deyar ekanmiz bevosita nafaqat 3-yo'nalish balki strategiyaning barcha yo'nalishlari va maqsadlari umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan, inson manfaatlarini himoya qilish va eng asosiysi farovon turmush tarzini yaratishga qaratilganini unutmashimiz joisdir. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, — "inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda biz avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashni nazarda tutamiz". Mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyevning odil iqtisodiy qarashlari va uzoqni ko'ra bilishlari orqali O'zbekiston respublikasi soniyalar sayin ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy sohada rivojlanib bormoqda. Qardosh respublikalar bilan ijtimoiy-siyosiy aloqalarimizda yuqorida keltirilgan jumalarning yaqqol misolini ko'rishimiz mumkin. Ijoiy o'zgarishlardan bilishimiz mumkinki qo'shni respublikalar bilan iqtisodiy-siyosiy jarayonlarni yanada rivojlantirishga doir bir qancha uchrashuvlar bo'lib o'tdi. Hususan mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston va Rossiya Respublikalari o'rtasida iqtisodiy va strategik aloqalarni yanada rivojlantirish maqsadida Kremilda Rassiya Prezidenti Vladimir Putin bilan uchrashdi. Prezidentlar hududlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish muhim ekanini qayd etdilar. Bugungi kunda iqtisodiyotni rivojlantirish, investitsiyalar miqdorini jadal oshirish, tashqi investorlarni jalb etish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirish kabi yanada milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan masalalar prezidentimiz tomonidan o'rtaga ko'ndalang tashlandi. Milliy iqtisodiyotni yanada rivojlantirish tamoyili asosida 4-oktabr kuni Qozon shahrida o'tgan uchinchi hududlararo hamkorlik forumi yakunida 3,5 milliard dollarlik bitim va shartnomalar imzolandi. Toshkent viloyatida 2023-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 16 138,1 mlrd. so'mni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2022-yilning yanvar-sentabriga nisbatan 19,3 % ga oshgan. Kichik subyektlarining sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi, tegishli davrda: 2021-yilning yanvar-sentabrida 9505,3 mlrd. so'm 2022-yilning yanvar-sentabrida 11 799,3 mlrd. so'mni tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlar faqatgina oddiy ko'rsatkichlarda emas balki amalda ham o'z isbotini topib kelmoqda. Mamlakatimiz prezidenti SHavkat Mirziyoyev to'liq bandlikni ta'minlash, milliy iqtisodiyotni yanada takomillashtirish hamda kichik biznes va hususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni umum iqtisodiy masala sifatida keng muhokamaga tashladi. O'zbekiston respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 28-yanvardagi " 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli farmonga muvofiq, tashqi savdoni tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish, mahalliy tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish choralarini yanada kuchaytirish orqali yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar eksportini kengaytirishga doir bir qancha islohatlar amalga oshirilishi belgilab qo'yildi.

Bugungi kunda O'zbekistonda ham tashqi savdoni rivojlantirish.Eksportni rag'batlantirish hamda importni kvotalashga kata e'tiborlar qaratilmoqda. O'zbekistonning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan 7,5 % ga ko'paydi va jami TSAdagi ulushi 67,6 % ni tashkil etdi. O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-noyabr holatiga ko'ra, 18 594,0 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 7 466,4 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 11 127,6 mln. AQSH dollari

qiymatida qayd etildi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 7 011 taga yetdi va ular tomonidan 15 050,5 mln. AQSH dollari (nomonetar oltindan tashqari) qiymatidagi (2022- yilning mos davriga nisbatan 5,7 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

2023- yil yanvar-noyabr oylarida 1 633,5 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatgich 2022- yilning mos davriga nisbatan 1,4 % ga yoki 23,1 ming tonnaga ko'paydi.

1-jadval Eksport tarmoqlari va uning hajjmi

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami eksport	17 768,	23 204,3	114,6	130,6	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1 466,6	1 644,2	118,8	112,1	8,3	7,1
Ichimliklar va tamaki	99,2	111,8	3,2 m.	112,7	0,6	0,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	357,0	284,4	75,3	79,7	2,0	1,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1 183,4	870,2	137,0	73,5	6,7	3,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	20,7	11,9	16,5 m.	57,4	0,1	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	1 235,2	1 207,0	125,1	97,7	7,0	5,2
Sanoat tovarlari	3 957,0	3 751,2	99,9	94,8	22,3	16,2
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	875,0	1 208,9	142,0	138,2	4,9	5,2
Turli xil tayyor buyumlar	991,1	1 100,6	140,8	111,0	5,6	4,7
Boshqa tovarlar	3 546,2	8 190,6	82,4	2,3 m.	20,0	35,3
Shu jumladan: nomonetar oltin	3 527,6	8 153,8	85,8	2,3 m.	19,9	35,1
Xizmatlar	4 036,9	4 823,5	173,1	119,5	22,7	20,8

Strategiyamizda qayd etilgan yo'nalishlardan biri bo'lmish milliy iqtisodiyotni yanada rivojlanishiga erishishimiz uchun mehnatkash va fidokor xalqimiz oldida tashqi savdoni yanada rivojlanishiga to'siq bo'lib kelayotgan bir qancha muammolarni bartaraf etish vazifasi turibdi. Habarimiz borki dunyo boylab quruqlikdan dengizga to'g'ridan to'g'ri chiqaolmaydigan 2 davlatdan biri O'zbekiston Respublikasidir. Bugungi kunda milliy iqtisodiyot hamda ichki bozorni modernizatsiya qilar ekanmiz asosiy e'tiborni eksportni rag'batlantirish va eng asosiysi xarajatlarni minimallashtirib foydani maksimallashtirishga qaratishimiz joisdir. Eng qimmat eltuv transporti bu havo yo'llari orqali eltishdir. Mamlakatimiz esa eng qulay iqtisodiy bozor hududida joylashgan g'arb mamlakatlariga tovar va xizmatlarni taklif etish uchun bir qancha ortiqcha xarajatlarni sarf etishiga to'g'ri keladi. Shuning uchun O'zbekiston respublikasi tovar eksportining asosiy qismida Osiyo mamlakatlari bilan cheklanib qolmoqda. Demak hali mehnatkash, fidokar va eng muhumi buyuk temuriylaru xonlar avlodi hisoblanmish xalqimiz oldida bir qancha mashaqqatli vazifalar turibdi desak mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. T.:O‘zbekiston, 2017.
2. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasi// <https://www.lex.Uz>
3. 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot
4. strategiyasi// <https://www.lex.Uz>
5. Akmalxon o‘g M. S. et al. IQTISODIY FANLARNI OQITISHNING ZAMONAVIY USLUBLARI //Gospodarka i Innowacje. – 2024. – T. 43. – C. 220-223.
6. Akmalxon o‘g, Muzaffarxonov Saida’loxon. "IQTISODIY FANLARNI OQITISHNING ZAMONAVIY USLUBLARI." *Gospodarka i Innowacje*. 43 (2024): 220-223.
7. Akmalxon o‘g, M. S. L. (2024). IQTISODIY FANLARNI OQITISHNING ZAMONAVIY USLUBLARI. *Gospodarka i Innowacje*, 43, 220-223.
8. Akmalxon o‘g M. S. et al. KICHIK IQTISODIY SEKTORLARNING YALPI ICHKI MAHSULOTDAGI O ‘RNI HAMDA ULARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI //IMRAS. – 2024. – T. 7. – №. 1. – C. 163-167.
9. Akmalxon o‘g, Muzaffarxonov Saida’loxon. "KICHIK IQTISODIY SEKTORLARNING YALPI ICHKI MAHSULOTDAGI O ‘RNI HAMDA ULARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI." *IMRAS* 7.1 (2024): 163-167.
10. Akmalxon o‘g, M. S. L. (2024). KICHIK IQTISODIY SEKTORLARNING YALPI ICHKI MAHSULOTDAGI O ‘RNI HAMDA ULARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI. *IMRAS*, 7(1), 163-167.
11. Sultonbekovna M. M. et al. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XUSUSIY TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNESNI YANADA RIVOJLANTIRISHNING YONALISHLARI VA OSISH TENDENSIYALARI //World scientific research journal. – 2023. – T. 15. – №. 1. – C. 64-70.
12. Sultonbekovna, Mannopova Muazzam, and Muzaffarxonov Saida’loxon Akmalxon o‘g. "O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XUSUSIY TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNESNI YANADA RIVOJLANTIRISHNING YONALISHLARI VA OSISH TENDENSIYALARI." *World scientific research journal* 15.1 (2023): 64-70.
13. Sultonbekovna, M. M., & Akmalxon o‘g, M. S. L. (2023). O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XUSUSIY TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNESNI YANADA RIVOJLANTIRISHNING YONALISHLARI VA OSISH TENDENSIYALARI. *World scientific research journal*, 15(1), 64-70.